**Kalit so'zlar:** Yashil moliya, yashil o'sish, moliyaviy mahsulotlar, chakana bank xizmatlari, yashil bank mahsulotlari, toza energiya, ekologik barqaror rivojlanish, yoqilg'i tejamkorligi, yashil ipoteka, yashil kreditlar, xalqaro tashkilotlar (JST, BMT, G20), ekologik mas'uliyat, moliyaviy sektor va barqarorlik, yashil mahsulotlarga talab.

**Abstract:** Green finance has emerged as a key component at the convergence of the financial industry, sustainable economic growth, and environmental regulation. This paper examines the increasing significance of green financial instruments, with a specific focus on retail banking products, including green credit cards, eco-friendly auto loans, and green mortgages. These instruments support environmental goals, including energy efficiency, the adoption of clean energy, and environmentally responsible consumption. The study highlights the dual benefits of green finance: increased market opportunities for financial institutions due to rising consumer demand, and cost advantages for users. As green growth continues to be prioritized by international organizations such as the WTO, UN, and G20, green finance is positioned as a strategic tool for achieving long-term sustainability.

**Key words:** Green finance, green growth, financial products, retail banking, green banking products, clean energy, environmentally sustainable development, fuel efficiency, green mortgage, green loans, international organizations (WTO, UN, G20), environmental responsibility, financial sector and sustainability, demand for green products.

**Аннотация:** Зелёные финансы становятся ключевым элементом на пересечении финансовой отрасли, устойчивого экономического роста и экологического регулирования. В данной статье рассматривается возрастающая значимость зелёных финансовых инструментов, с особым вниманием к розничным банковским продуктам, таким как «зелёные» кредитные карты, экологичные автокредиты и «зелёные» ипотечные кредиты. Эти инструменты способствуют достижению экологических целей, включая повышение энергоэффективности, внедрение чистой энергии и ответственное потребление. В исследовании подчёркиваются двойные преимущества зелёных финансов: расширение рыночных возможностей для финансовых институтов в условиях роста потребительского спроса и снижение затрат для пользователей. Поскольку «зелёный рост» продолжает оставаться приоритетом для таких международных организаций, как ВТО, ООН и G20, зелёные финансы рассматриваются как стратегический инструмент для достижения долгосрочной устойчивости.

**Ключевые слова:** Зелёные финансы, зелёный рост, финансовые продукты, розничное банковское обслуживание, зелёные банковские продукты, экологически чистая энергия, экологически устойчивое развитие, топливная эффективность, зелёная ипотека, зелёные кредиты, международные организации (ВТО, ООН, G20), экологическая ответственность, финансовый сектор и устойчивость, спрос на зелёные продукты.



## KIRISH

IPCCning so'nggi hisobotiga ko'ra, insoniyat faoliyati global isishning asosiy omili bo'lib qolmoqda va mavjud tendensiyalar davom etsa, global harorat 2030 va 2052-yillar oralig'ida sanoatgacha bo'lgan davrga nisbatan 1,5 °C ga yetishi kutilmoqda. Ushbu hisobotda 1,5 °C darajadagi isishni jilovlash uchun 2030-yilgacha inson faoliyati natijasida hosil bo'ladigan CO<sub>2</sub> chiqindilarini 2010-yil darajasiga nisbatan qariyb 45% ga kamaytirish va 2050-yilga borib to'liq neytral holatga yetkazish zarurligi ta'kidlangan. Bu kabi yirik maqsadlarga erishish uchun barcha iqtisodiy tarmoqlar va ijtimoiy tizimlarda tub o'zgarishlar zarur bo'ladi. AQSh tomonidan tayyorlangan Milliy Iqlim Baholash hisobotida asosan mamlakat miqyosidagi holatlar yoritilgan bo'lsa-da, unda ham global xavflarni kamaytirish uchun chiqindilarni qisqartirish va moslashuv mexanizmlarini joriy etish zarurligi bildirilgan. Ushbu xulosalar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi va global harorat oshishining salbiy oqibatlarini ko'plab dalillar bilan tasdiqlangan bo'lsa-da, mavjud holat bu yo'nalishda hali yetarli darajada rivojlanish bo'lmaganini va sezilarli sa'y-harakatlar talab etilishini ta'kidlamogda.

Uzoq muddatli tarkibiy islohotlarni amalga oshirish uchun talab etiladigan investitsiya hajmi nihoyatda katta ekani ta'kidlanadi. IPCC hisob-kitoblariga ko'ra, 2035-yilgacha har yili kamida 2,4 trillion AQSH dollari miqdorida toza energiya loyihalariga sarmoya kiritilishi zarur. Bundan tashqari, 2050-yilgacha energetika tizimining ishlab chiqarish tomonini qo'llab-quvvatlash uchun yiliga 1,6 trilliondan 3,8 trillion dollargacha mablag' talab qilinadi. Bu esa jami 51,2 trilliondan 122 trillion AQSH dollarigacha bo'lgan investitsiyani faqat energetika sektori uchun yo'naltirish zarurligini anglatadi. Bunday yirik moliyaviy ehtiyojlarni qoplashda moliya tizimi, ayniqsa bank sektori hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki u real iqtisodiyotning asosiy tayanchi hisoblanadi. Banklar xususiy sektorning moliyalashtirish ehtiyojlarini ta'minlash, aholi va tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, bank tizimi iqlim o'zgarishiga moslashuv, iqlim xavflarini yumshatish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim vositaga aylanadi. Banklar moliyaviy oqimlarni ekologik barqaror sohalarga yo'naltirish orqali xavflarni kamaytirish, iqlimga ta'sirni yengillashtirish va tiklanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega.

So'nggi yillarda ba'zi banklar yashil yoki iqlimga oid loyihalarni moliyalashtirishda yetakchilikni qo'lga kiritgan bo'lsa-da, ko'pchilik banklarning ekologik portfeli hanuzgacha past darajada qolmoqda. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) 2016-yil uchun bergan ma'lumotga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy sektor uchun ajratilgan yashil kreditlar atigi 1,5 trillion dollarni yoki umumiy xususiy kreditlarning 7 foizini tashkil etgan. Bunday holat asosan ekologik xavflarni bank strategiyalari va risklarni boshqarish tizimlariga kiritmaslik, shuningdek, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi tizimlarning yetarli emasligi bilan bog'liq.

Moliyaviy tizimdagi amaldagi me'yoriy muhit esa sektorlar va institutlar darajasidagi to'siqlar tufayli zarur investitsiyalarning amalga oshirilishini murakkablashtirmoqda. Shu bois, so'nggi yillarda ko'plab markaziy banklar va moliyaviy regulyatorlar o'zlarining iqlim xavflariga qarshi kurashdagi rolini tan olib, faol choralar ko'ra boshladi. 2017-yilda yaratilgan "Moliya tizimini yashillashtirish tarmog'i" (NGFS) tashabbusi aynan moliyaviy sektordagi iqlim va ekologik xavflarni tahlil qilish, ularni boshqarish hamda barqaror iqtisodiyotga o'tishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan.

Bundan tashqari, xususiy sektor banklari o'z faoliyatini ekologik barqarorlik tamoyillariga moslashtirishga kirishgan: ular iqlim xavflarini strategik rejalashtirish va risklarni boshqarish tizimlariga kiritib, yashil moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqishni boshlagan va shu orqali o'z bozor salohiyatini kengaytirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotchilar yashil bank tushunchasini turlicha izohlashgan bo'lsa-da, ularning aksariyati bu atamani moliyaviy institutlarning ekologik va ijtimoiy barqarorlikka asoslangan strategiyalarni amalga oshirishi bilan bog'laydi. Masalan, Alexander yashil bankka oid yagona universal ta'rif yo'qligini ta'kidlaydi va uning mazmuni mamlakatlarga qarab sezilarli farq qilishi mumkinligini bildiradi. Hindistondagi Bank texnologiyalari bo'yicha taraqqiyot va tadqiqot instituti yashil bankni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi amaliyotlar majmuasi sifatida talqin qiladi. Bihari esa yashil bankni axloqiy bank faoliyatining bir ko'rinishi sifatida ko'rib, uning asosiy maqsadi sifatli moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan birga atrof-muhit va jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni ta'minlashdan iborat ekanini ta'kidlaydi.

Banklardagi yashil bank amaliyotlariga oid tadqiqotlar X.Bouen, D.Bronshetyn, G.Diz. J.boshi, J.Kikal, T.Lyons, A.A. Antonova D.M.Shakirova, A.A.Barisheva, B.M.Teplov, A.Vaxobov, A.Madaminovlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — yashil bank xizmatlari konsepsiyasining nazariy asoslarini o'rganish, bank sektorining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi o'rmini tahlil qilish, shuningdek, ekologik barqarorlik va moliyaviy xizmatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashdan iborat.



Tadqiqot deskriptiv va analitik yondashuv asosida olib borildi. Deskriptiv yondashuv orqali mavjud adabiyotlar va xalqaro tajribalar o'rganildi, analitik yondashuv esa yashil bank faoliyatining asosiy tamoyillari, amalga oshirishda duch kelinayotgan muammolar va talabni shakllantiruvchi omillarni tahlil qilishga xizmat qildi.

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar quyidagi manbalarni o'z ichiga oladi:

Ikkilamchi manbalar: Xalqaro tashkilotlar (IPCC, IFC, OECD, NGFS), banklar (SBP, EBF), tadqiqot institutlari (IDRBT), va ilmiy maqolalar (Alexander, Bihari, Dufays, Mazzucato & Semieniuk, Kaeufer, Weber & Remer) tomonidan e'lon qilingan hisobotlar, siyosiy hujjatlar va ilmiy nashrlar.

Kontent tahlili: Yashil moliyaga oid asosiy tushunchalar, strategik yondashuvlar, ijtimoiy mas'uliyat, atrof-muhitni muhofaza qilish, va yashil mahsulotlar bo'yicha mazmunli taqqoslashlar amalga oshirildi.

Nazariy asoslarni shakllantirish – yashil bank tushunchasi, u bilan bog'liq kontsepsiyalar (mas'uliyatli bank, ijtimoiy bank, barqaror bank) bo'yicha mavjud adabiyotlar o'rganildi.

Tahliliy baholash – banklar tomonidan taklif etilayotgan yashil moliyaviy xizmatlar va ular bilan bog'liq strategik qarorlar o'rganildi.

Omillarni aniqlash – yashil moliyaga bo'lgan talabni shakllantiruvchi asosiy omillar (media, jamoatchilik fikri, regulatsiya) aniqlanib, tizimlashtirildi.

Ilmiy umumlashtirish – xalqaro tajribalarga asoslangan holda yashil bank konsepsiyasining rivojlanish yo'nalishlari xulosa qilindi.

Tadqiqot asosan konseptual va nazariy manbalarga asoslangan bo'lib, amaliy (empirik) ma'lumotlar yetishmasligi sababli, yashil bank faoliyatining konkret moliyaviy ko'rsatkichlari chuqur tahlil qilinmagan. Biroq, mavjud xalqaro hisobotlar asosida umumiy xulosa va tavsiyalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab yashil moliyaviy mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda. So'nggi yillarda bank sektori tomonidan nisbatan yangi tushuncha sifatida ilgari surilayotgan yashil bank amaliyotlari bilan bir qatorda, boshqa moliyaviy institutlar — xususan, sug'urta kompaniyalari, aktivlarni boshqaruvchi tashkilotlar va boshqalar ham o'z faoliyatiga “yashil” strategiyalarni tatbiq etish va joriy etish harakatida.

Mazkur talabning ortishiga ta'sir qiluvchi uchta asosiy omil mavjud:

Atrof-muhitga oid bilimlar va ommaviy axborot vositalarining yoritishi


Ekologik ongning oshishi va jamoatchilik fikri

Ekologik qonunchilik va tartibga soluvchi me'yorlar

Ommaviy axborot vositalari atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni yoritishda faol ishtirok etib, jamoatchilikning ushbu masalalarga oid bilim va xabardorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Yevropa davlatlari ekologik barqaror amaliyotlarni joriy etishda yetakchilik qilmoqda. Bunga asosiy omil sifatida hukumatlarning faol ishtiroki ko'rsatiladi. Yevropadagi hukumatlar tomonidan ekologik muammolarga nisbatan kuchli siyosiy irodaning namoyon etilishi, jamoatchilik ongini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bu holat Shimoliy Amerika bilan solishtirilganda ancha faol tarzda kuzatilmoqda. Shu bilan birga, barqaror rivojlanishni rag'batlantiruvchi strategiyalar, qonunchilik tashabbuslari va tartibga soluvchi normalarning joriy etilishi hamda barqaror bo'lmagan iqtisodiy faoliyatlarni cheklovchi choralar “yashil” moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talabning ortishida muhim omillar sifatida xizmat qilmoqda.

Moliyaviy institutlar o'z faoliyatida “yashil” strategiyalarni o'z vaqtida tan olgan va amaliyotga joriy eta olgan taqdirda, kengroq mijozlar qatlamini jalb etishi, daromadlarini oshirishi hamda barqaror rivojlanishga sezilarli hissa qo'shishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Garchi “yashil yuvish” (greenwashing) muammosi hali ham mavjud bo'lsa-da, moliyaviy institutlar orasida ushbu yo'nalishda ijobiy tendensiya kuzatilmoqda. Xususan, ular “yashil” moliyaviy mahsulot va xizmatlarni asosiy va ommaviy bozorga mo'ljallangan takliflar sifatida shakllantirishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda.

Yashil moliya zamonaviy moliyaviy tizimda keng tarqalayotgan va istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib, uni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, bank sohasida yuzaga kelayotgan yangi moliyaviy vositalar va mahsulotlarning aniq tasnifini ishlab chiqish ilmiy hamjamiyat oldida muhim vazifa sifatida turibdi. Ayni paytgacha ushbu yo'nalishda eng mukammal tasnif Jin Noh Hee tomonidan taklif etilgan bo'lib, u yashil moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni to'rt asosiy bank segmenti — chakana moliya, korporativ/investitsiyaviy moliya, aktivlarni boshqarish va sug'urta sohalari bo'yicha guruhlagan (1-rasm).



1-rasm. Yashil moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni to'rt asosiy bank segmenti.<sup>1</sup>

#### Yashil chakana bank xizmati

Chakana bank sohasi — bu yirik korporativ yoki institutsional mijozlardan farqli o'laroq, jismoniy shaxslar, xonadonlar va kichik hamda o'rta biznes sub'yektlari (KO'B) uchun mo'ljallangan shaxsiy va tijorat bank mahsulotlari hamda xizmatlarini o'z ichiga oladi.

Chakana bank sektori o'z mahsulot va xizmatlarini (masalan: omonatlar — jamg'arma va joriy hisobvaraqlar, shaxsiy kreditlar, ipoteka, debet/kredit kartalari, depozit sertifikatlari (CD), sayohatchilar chek(lar) i) "yashil"lashtirishni istaganida, bu yo'lda eng sodda usullardan biri — onlayn bank xizmatlarini targ'ib qilishdir.

Har ikkala tomon — mijoz va bank uchun bu yechimning afzalliklari yaqqol ko'zga tashlanadi. Mijozlar uchun vaqt tejaydi, bankka borishga hojat qolmaydi, bu esa yoqilg'i sarfini kamaytiradi va atmosferaga chiqadigan zararli gazlar (emissiyalar)ni oldini oladi. Bundan tashqari, hujjatlashtirish kamayadi, bu esa turli tranzaksiyalar uchun bank tomonidan undiriladigan to'lovlarni pasaytiradi.

Banklar esa o'z navbatida filiallar soni, xodimlar xarajatlari, qog'oz sarfi va pochta bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Chakana mijozlar soni ortgani sari umumiy boshqaruv xarajatlarining ham pasayish tendensiyasi kuzatiladi.

Onlayn bank xizmatlari — yashil bank konsepsiyasining faqat "muammo yuzasi"ni tashkil etadi, ya'ni bu boradagi imkoniyatlar undan ancha kengdir. Banklar o'z faoliyatida energiya tejankor texnologiyalardan foydalanishga sarmoya kiritishi mumkin, jumladan: energiya samaradorligi yuqori bo'lgan lampalar, kompyuterlar, sovitish va shamollatish tizimlari kabi uskunalaridan foydalanish. Shuningdek, ular ekologik toza sanoat tarmoqlariga kredit ajratishni ko'paytirish hamda global, milliy yoki mahalliy ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali ham "yashil" rivojlanishga hissa qo'shishlari mumkin.

<sup>1</sup> Manba: Yashil o'sishni jadallashtirish uchun innovatsiyani moliyalashtirish strategiyasi (Jin Noh Hee, 2010).



Biroq bank haqiqatan ham “yashil” bank sifatida shakllanayotganini uning mahsulot va xizmatlaridan anglash mumkin. Agar bank yashil chakana bank mahsulotlarini amaliyotga joriy etsa, odatda eng ommabop mahsulotlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

Yashil bank kartalari

Yashil avtomobil kreditlari

Yashil ipoteka kreditlari

Yashil uy mulkiga egalik asosidagi kreditlar

Yashil depozit sertifikatlari (CDs)

1. Yashil kredit va debet kartalari

Yashil kredit va debet kartalari, ayniqsa Yevropa mamlakatlarida, tobora ommalashib bormoqda. Umuman olganda, bu turdagi kartalar xarid yoki moliyaviy tranzaksiya qiymatining 0,1% dan 0,5% gacha bo'lgan qismini atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq nodavlat notijorat tashkilotlariga (NNT) yoki bevosita bank tomonidan tashkil etilgan ma'lum bir ekologik tashabbusga xayriya shaklida yo'naltirish mexanizmi asosida ishlaydi. Odatda, bunday kartalarga yillik xizmat haqi ham mavjud bo'ladi, biroq bu to'lov majburiy hisoblanmaydi.

2. Yashil avtomobil kreditlari

Yashil avtomobil kreditlari, ayniqsa Yevropa va Avstraliya davlatlarida keng tarqalgan bo'lib, oddiy avtomobil kreditlariga nisbatan pastroq foiz stavkasi bilan ajralib turadi. Odatda bunday kreditlarda foiz stavkasi o'rtacha avtomobil kreditiga qaraganda kamida 0,25% past bo'ladi, ba'zi holatlarda esa bu farq 0,50% yoki undan ham yuqori bo'lishi mumkin.

Foiz stavkasining qanchalik past bo'lishi bir qancha omillarga bog'liq. Aksariyat hollarda bu ko'rsatkichlar avtomobilning karbonat anhidrid ( $CO_2$ ) chiqindilari miqdori va yoqilg'i samaradorligi asosida belgilanadi. Ya'ni, chiqindilar miqdori qancha kam va yoqilg'i tejamkorligi qancha yuqori bo'lsa, foiz stavkasi shuncha qulay bo'ladi.

Bundan tashqari, yashil avtomobil kreditlari odatda muddatidan oldin to'lash uchun jarima to'lovlarini nazarda tutmaydi va past xizmat haqlari bilan taqdim etiladi.

3. Yashil ipoteka kreditlari

Yashil ipoteka kreditlari iste'molchiga bozor stavkalariga nisbatan pastroq foiz stavkasi taklif qiladi. Odatda bu imtiyoz foiz stavkasida 0,125% dan 0,25% gacha chegirmani o'z ichiga oladi.

Mazkur turdagi ipoteka kreditlari orqali moliyalashtirilayotgan uy-joylar:

energiya tejamkor qurilish texnologiyalari asosida barpo etilgan,

kam energiya sarflovchi maishiy jihozlar bilan jihozlangan,

yoki ushbu kredit banki tomonidan uy-joyni yashil (alternativ) energiya manbalariga o'tkazish xarajatlarini qoplash uchun ajratiladi.

Yashil ipoteka olish orqali xaridor ekologik jihatdan qulayroq turmush sharoitiga ega bo'lishi bilan birga, kundalik yashash xarajatlarini ham kamaytiradi.

Shunga qaramay, yashil ipoteka kreditlarining bir kamchiligi mavjud — ular odatdagi kreditlarga nisbatan ko'proq hujjatlashtirish va byurokratik jarayonlarni talab qiladi.

4. Yashil uy mulkiga egalik asosidagi kreditlar (Green Home Equity Loans)

Yashil uy mulkiga egalik asosidagi kreditlar mijozlarga o'z uylarini energiya tejamkor holatga keltirishga sarmoya kiritish imkonini beradi. Bu turdagi kreditlarning foiz stavkalari odatdagi uy mulkiga egalik kreditlariga qaraganda kamida 0,33% past bo'ladi, ba'zi hollarda esa bu chegirma 1% gacha yetishi mumkin.

Moliyalashtirish odatda quyidagi yo'nalishlarga yo'naltiriladi:

quyosh va shamol energiyasi tizimlarini o'rnatish,

energiya tejamkor deraza romlari,

issiqlik moslamalarini almashtirish (masalan, pechlar),

yashil tom qurilmalarini joriy qilish,

issiqlik izolyatsiyasini yaxshilash,

va passiv isitish tizimlarini qurish.

Ushbu kreditlar ekologik barqarorlikni oshirish bilan birga, uy egalari uchun kelajakdagi energiya xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

5. Yashil depozit sertifikatlari (Green Certificates of Deposits)

Yashil depozit sertifikatlari — bu yangi turdagi investitsiya vositalari bo'lib, ulardan tushgan mablag'lar energiyani tejovchi va ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi. Ko'pchilik holatlarda, bu mablag'lar quyosh energiyasi bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishda ishlatiladi. Ushbu sertifikatlarning muddati odatda bir yildan ikki yilgacha bo'lib, ular oddiy depozit sertifikatlariga nisbatan biroz yuqoriroq foiz stavkasi bilan taqdim etiladi — bu esa yangi investorlarni jalb qilish uchun qo'llaniladigan strategiyalardan biridir.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha, yashil moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar kelajakda o'z o'rniga ega bo'ladi, ayniqsa karbon bozori, yashil qurilish va atrof-muhit texnologiyalari kabi yangi yuzaga chiqayotgan bozorlar sharoitida. Shu bilan birga, yashil marketing yondashuvi ham atrof-muhit muammolarini targ'ib qilishda va "yashil yuvish" (greenwashing) hodisasidan — ya'ni, aslida ekologik bo'lmagan mahsulot va xizmatlarning ekologik ko'rinishda taqdim etilishidan himoyalashda muhim rol o'ynaydi. Chakana bank sektori yashil bank faoliyatida yetakchi bo'lish uchun eng katta imkoniyatlarga ega. Mijozlar bilan samarali kommunikatsiya orqali banklar nafaqat barqaror moliyaviy mahsulot va xizmatlarni taklif etishi, balki atrof-muhit muammolari bo'yicha xabardorlikni oshirishga ham xizmat qilishi mumkin. Yangi mahsulotlar va xizmatlar asta-sekin paydo bo'lmoqda va mijozlar e'tiborini tortmoqda. Biroq ayrim mahsulotlar, masalan, yashil ipoteka kreditlari, dastlabki kutilgan darajani to'liq oqlamagan. Asosiy maqsad — atrof-muhit komponentlarini an'anaviy bank faoliyatiga integratsiyalash, shunda "yashil" atamasi ortiqcha bo'lib qoladi, ya'ni u umumiy norma sifatida qabul qilinadi.

Yashil iqtisodiyot va bank tizimiga doir yangi yondashuvlar shakllanayotgan bir paytda, ushbu modelga nisbatan tanqidiy qarashlar ham mavjud. Ijtimoiy va birdamlik iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tarmoq (RIPESS) boshqaruvi Rio +20 sammiti doirasida o'tkazilgan 5-Lotin Amerikasi va Karib havzasi birdamlik iqtisodiyoti va halol savdo konferensiyasi muhokamalari asosida quyidagi bayonotni e'lon qilgan: "Hukumatlar va transmilliy korporatsiyalar tomonidan taqdim etilayotgan "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi — bu aslida mavjud iqtisodiy modelning davomidir, umumiy resurslarni tovarlash orqali kapitalizmning inqirozdagi holatidan chiqishga qaratilgan yangi shaklidir. Birdamlik iqtisodiyoti esa jamiyatni ushbu cheklolardan ozod qilish yo'lidir."

Bizning fikrimizcha, tanqid ijobiy bo'lishi mumkin, biroq yashil iqtisodiyot va moliyaviy tizim yaratishga qaratilgan harakatlarni butunlay inkor etish — bu konstruktiv yondashuv emas.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. CEO briefing, Green Financial Products and Services (2007) p.1-3, Current State of Play and Future Opportunities, UNEP Finance initiative, report
2. Ensuring Green Growth in a Time of Economic Crisis: The Role of Energy
3. Technology (2009), International Energy Agency, G8, Siracusa
4. Gerardo Rodriguez Regordosa, Green Growth in the G-20's Agenda (2012)
5. Global Green New Deal (2009) p.1-3, Policy Brief, UNEP
6. Green Economy: A Transformation to Address Multiple Crises; An Interagency Statement of the United Nations System(2009)
7. Green Financial Products and Services (2007) p.15-23, Current Trends and Future Opportunities in North America, UNEP Finance Initiative, report
8. Hee Jin Noh (2010) p. 2-3,10, Financial Strategy to Accelerate Innovation for Green Growth, Korea Capital Market Institute
9. Gračanac A. (2009) p. 245, Global Banking, Educons University
10. Role of Bank of Indonesia to support Green Investment (2011) p. 6, Edi Setijawan
11. The Economy we need - Declaration of the Social and Solidarity Economy movement at Rio +20 (2012), p. 1, Board of the Intercontinental Network for the Promotion of Social and Solidarity Economy (RIPESS)
12. [www.bankrate.com](http://www.bankrate.com)
13. [www.g20.org](http://www.g20.org)



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>